

Ishmurzayeva Lobar Anvarjon qizi

Guliston davlat universiteti

Lingvistika:o'zbek tili yo'naliishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada punktuasiyaning tekshirish obyekti, o'ziga xos xususiyatlari, semantik va funksional taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Punktuatsiya, tinish belgilari,turish belgilari,yoylar,ulkан yoylar

Tinish belgilarining maqsadi o'quvchiga yozilgan narsaning ma'nosini to'g'ri tushunishni ta'minlashdir. Tinish belgilarining asosini nutqning semantik artikulyatsiyasi tashkil etadi. Ko'pincha semantik bo'linish uning grammatik bo'linishiga, og'zaki nutqda esa intonatsion bo'linishga mos keladi; boshqacha aytganda, semantik artikulyatsiya grammatik va intonatsion jihatdan ifodalanadi. Bunda tinish belgilari uchun semantik, grammatik va intonatsiya asoslarining mos kelishi yoki tinish belgilarining strukturaviy-semantik asoslari haqida gapirish mumkin.

Fitrat o'zining "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba" nomli asarida punktuasiyaning tekshirish obyekti, o'ziga xos xususiyatlari, semantik va funksional taraqqiyoti haqida ma'lumot beradi. O'zbek tilida tinish belgilarining miqdori va qo'llanish usuli, tinish belgilarining qo'llanish o'rniga, usuliga, tuzilishiga, vazifasiga ko'ra tasnifini berishga harakat qiladi.

Xullas, olimning tinish belgilari xususidagi fikri bugun ham o'z kuchida turgan, hattoki zamонавиъ tilshunoslik o'zbekcha istilohlarni qo'llashda Fitratdan namuna olsa arziydi.Fitrat tinish belgilarini "turish belgilari" nomi ostida yoritib bergan.

So'zlami to'plab, bir-biriga baylab gap tuzishda «o'y» qulay anglashilsin deb turli.beglilar ishlataladir. Bunlaming hamasig'a birdan «turish belgilari» yo sodacha «turishlar» deyiladir. Turish belgilaridan qaysi birtasini gapning qaysi bo'lagidan so'ng qo'yilishi to'g'rusida har birining o'z o'mida ma'lumot berilgusidir. Bunda hamasini bir qatordan ko'rib o'tishimiz kerak:

1-«Nuqta» (.)dir. Bunga kelgach o'qug'uchining to'xtashi lozim.

2- «Bir tinish» belgisi (;)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi to'xtamaydir; biroq gapdag'i so'zlamning munosabatlari uzilmasin uchun bir nafas tolish (bir tinish) vaqtin turib o'tadir.

3- «Yarim tinish» belgisi (,)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi yarim tinish vaqtin turib o'tadir.

4-So'rash belgisi (?)dir.

5-Undash belgisi (!)dir.

- 6-Qo'sh nuqta (:)dir.
- 7-Tirnoqlar (« »)dir.
- 8-Yoylar ()dir.
- 9-To'rtkul5 yoylari []dir.
- 10-Ulkan yoylar { }dir.
- 11-Chiziq (-)dir.
- 12-Nuqtalar (...)dir.[1]

Hozirgi zamon yozuvini punktuatsiyasiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki punktuatsiya milliy til yozuvining tarkibiy qismi bo'lib, yozuv «notasi» hisoblanadi. Tinish belgilari yozuvda ma'lum ma'no va vazifada – aniq bir maqadda ishlatiladi. Ularning qanday ma'noda ishlatilganligi funktsiyasiga bog'liq, ya'ni tinish belgilarining ma'nosи ularirin funktsiyasidan – vazifasidan – kelib chiqadi. Punktuatsiya polisemantik va polifunktional xususiyatga ega bo'lganligi uchun tinish belgilarining ma'no va vazifalari ularning yozuvdagi qo'llanish o'rni va funktsiyasiga nisbatan belgilanadi.

Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligi, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ilmiy manbalarda, o'quv qo'llanmalarda tinish belgilarning qo'llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy-gramatik, uslubiy va farqlash tamoyillari asosida belgilanishi ta'kidlanadi. Bunda mantiqiy gramatik tamoyil nutqning semantik-gramatik tomonini yozuvda to'g'ri ifodalashga qaratilgan bo'lsa, differensiatsiya tamoyili asosidagi qoidalar tinish belgilarning qo'sh holda qo'llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmunni aniqlashtirish kerak bo'lganda ulardan foydalanish yo'llarini belgilab beradi. Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo'llanishini nutq uslublari asosida belgilashni nazarda tutadi, lekin bu unchalik to'g'ri emas, chunki muayyan bir uslubgagina xoslangan tinish belgi bo'lmaydi. Zarurat tug'ilganda har qanday uslubda ham xohlagan tinish belgisidan foydalanish mumkin. Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-gramatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomonдан yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi.

Tinish belgilarining qo'llanilishi gaplarning mazmuni, grammatik qurilishi va ohangiga ko'ra bo'linadi Ayrim tinish belgilarning qo'llanilishi gapning mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Jumladan: ifodalonmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov, so'roq belgisi, uch nuqta qo'yiladi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar bilan ifodalanadi.

Punktuatsiya yozma fikrni aniq va to'g'ri, mantiqli va ifodali, ravon va tushunarli hamda maqsadga muvofiq bayon qilishda muhim ahamiyatga ega. Savodxonlikni oshirish va yuksak nutq madaniyatini egallahsha orfografiya, orfoeziya qonun-

qoidalari qanchalik ahamiyatli bo`lsa, punktuatsiyani bilish ham shunchalik qimmatga molikdir. Yozma nutqda ayrim holatlarni – tilning leksik yoki grammatik vositalari bilan berish mumkin bo`lmagan ayrim tomonlarini – ifodalashda punktuatsiyaning xizmati katta.

Grammatik jihatdan bir xil shakllangan va bir xil leksik vositalarga ega bo`lgan quyidagi besh gapni olib ko`raylik, bularda besh xil ma'no birligi tinish belgilaridan bilinadi.

Masalan:

- 1.Biz fazoni o`rganmoqdamiz. (Xabar ma'nosi)
- 2.Biz fazonio`rganmoqdamiz? (So`roq ma'nosi)
- 3.Biz fazoni o`rganmoqdamiz! (Undov ma'nosi)
- 4.Biz fazoni o`rganmoqdamiz... (fikrning bo`linishi)
- 5.Biz fazoni o`rganmoqdamiz!.. (Kuchli emotsiya – sevinch – fikrning bo`linishi ma'nosi)

Hozirgi kunda punktuatsiyaning roli ortib, uning funktsiyasi va qo`llanish doirasi kengayib bormoqda.[2]

Punktuatsiya (punktum – nuqta) – “nuqtalar ilmi” demak. qadimgi latin, grek va got yozuvlarida so`zlar ba'zan bo`sh joy (interval), ba'zan esa nuqtalar vositasida bir-biridan ajratilgan. Yozuvda so`zlarni nuqtalar bilan ajratish O`rta Osiyo xalqlarining oromey (eramizning I asrigacha), turkiy runik yozuv yodnomalari (V – VIII asrlar) da ham qisman uchraydi. Qadimgi yozuvlardagi bu usul – so`zlarning nuqtaishorasi vositasida ajratish usuli – hozirgi punktuatsion usul deb yuritiladi. Gapda tinish belgilarning o'rni o'zgarsa gaapning mazmuni va sintaktik tuzulishi ham o'zgaradi. Quyidagi misollar bu gapimizning yorqin namunasi. Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko`rmaydi (Farzandning azizligi ma'nosida). Ona aziz, farzandiga yelni ham ravo ko`rmaydi (Onaning azizligi nazarda tutilgan). Punktuatsiya – ijtimoiy hodisa davrlar o'tishi yozuv madaniyatining o'sishi bilan punktuatsiya ham o'zgarib takomillashib bordi. Davrlar o'tishi, yozuvning taraqqiysi va yozuv madaniyatining o'sishi bilan punktuatsiya ham o'zgarib, takomillashib boradi. Yozuvda dastlab qo'llanilgan tinish belgilarning qo'yilish o'rni, usuli, vazifalari hozirgidek aniq va murakkab bo`lmagan. Masalan, dastlab yulduzcha va romba tipidagi 10 dan ortiq ishoralar nuqta o'rnida ishlataligan.[3]

XIX asrning oxiriga kelib, yozuvda hozirgi nuqtaning qo'llanilishi qat'iy lashgach, ular nuqtalikdan chiqqan. Demak davr talabiga bog'liq holda punktuatsion sistema o'zgarib boradi, mukammallahadi. Shuningdek, punktuatsiya va punktuatsion sistema tillararo har xildir. Punktuatsiya ayrim xalqlar yozuvida oldinroq ayrimlarida esa nisbatan keyinroq paydo bo`lgan. Masalan, ingliz tili punktuatsion sistemasida o'n ikkita tinish belgi bor. Ularda apostrof va defislар ham tinish belgi sanaladi. O'zbek tilida esa 10ta tinish belgi mavjud. Punktuatsion sistema rus yozuvida XVIII asrda, o'zbek yozuvida esa XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin vujudga kelgan.[4]

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

Tinish belgilari o'z vazifasiga ko'ra, ikkiga bo'linadi; a) chegaralovchi tinish belgilar- muayyan sintaktik tuzilmaning yoki umumman gapning chegarasini bildirish, bironbir gap bo'lagini intonatsion mazmuniy jihatdan ajratib ko'rsatish, nutq qaratilgan shaxs yoki predmet nomi qamrab olingan, shuningdek, yozuvchi (so'zlovchi)ning subyektiv munosabati ifodalangan sintaktik tuzilma chegarasini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi b) ajratuvchi tinish belgilari- mustaqil gaplarni, ularning qismlari (bosh va ergash gaplar, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning predikativ qismlari)ni, gapning uyushgan bo'laklarini, birgalik ergashishli qo'shma gaplarni, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini, tutqning bo'linganligini ko'rsatuvchi tinish belgilari.

Qo'llanish o'rniغا ko'ra tinish belgilari 3 guruhga bo'linadi. a) Gap oxirida qo'llaniladigan tinish belgilar; nuqta, so'roq va undov belgisi. b) Gap o'rtasida qo'llaniladigan tinish belgisi; vergul.

c) Aralash, ya'ni gapning turli o'rinalarida qo'llanadigan tinish belgilari; tire ikki nuqta, qo'shtirnoq, qavs va ko'p nuqta.

Punktuatsiya – yozuv oynasi. Yozuv orqali ifodalangan har bir gapning mazmuni, ma'no turlari va sintaktik qismlari orasidagi turli munosabatlarni aniqlashda punktuatsiyaning o'rni muhimdir.

Punktuatsiya yozuvchi va o'quvchi(kitobxon) o'rtasidagi ijtimoiy aloqa aralashuvni ta'minlashda ham muhimdir.

Punktuatsiya termini uch ma'noda qo'llaniladi: a) tinish belgilari sistemasi va qo'llanish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo`lim; b) punktuatsion qonun-qoidalar – normalar yig`indisi, to`plami; d) tinish belgilari (enak prepinnaniya). Punktuatsiya milliy til yozuviga mos maxsus va mustaqil bo`lim, unda tinish belgilari miqdori, ma'no va vazifalari hamda ularning qo'yilish o'rnlari va qo'llanish usullari, o'ziga xos xususiyatlari va yozuvning boshqa vositalaridan farqi kabi qator hodisalar tekshiriladi.

Demak, punktuatsiyaning tekshirish obyekti tinish belgilaridir. Punktuatsiya termini lotinchcha punctum so'zidan olingan bo'lib, aslda nuqta, o'rin, joy tushunchalari bilan bog'langan bo'lsa ham, tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prasodik to'xtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yig`indisini (tinish belgilarini) anglatadi. Punktuatsiya tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, tinish belgilari (punktogramma) va ularning qo'llanish qonun-qoidalarini o'rgatadi. Punktogramma muayyan yozuv tizimi (grafika) ning uzviy qismi bo'lib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin bo'lma-gan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomonidan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomonidan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi; bir tinish belgi

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

yozuvchi tomonidan qanday ma'no va vazifada qo'llangan bo'lsa, mazkur tinish belgi o'quvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi. Demak, tinish belgilari "Yozma nutqning tushunilishini osonlashtirish uchun qo'llaniladi" (Baduen de Kurtene) va uni oydinlashtiradi, aniqlik kiritadi. Tinish belgilarining o'rini qo'llanmasligi ma'lum bir sintaktik qurilmani ham mazmun, ham tuzilishii jihatidan o'zgarib ketishiga olib keladi. Masalan, Afandi podshoga qarab: Siz axmoq odam emassiz, - dedi (latifa) gapida axmoq so'zidan keyin pauza berilib (tire yoki vergul qo'yilib) o'qilsa, gap podshoning aklliligi haqida emas, balki uning ham axmoq, ham yomon odamligi haqida boradi. Qir-adirda lola gulpar ochilgan (U.) gapida lola so'zidan keyin vergul qo'yilmasa, faqat lolalar ochilganligi; vergul qo'yilsa, loladan tashqari boshqa gullar ham ochilganligi anglashiladi. O'zbek punktuatsiyasining kelib chiqishi tinish belgilari yozuvdan keyin paydo bo'lgan.

Qadimgi yozuvlar piktografik (rasm yozuv), logografik (so'z yozuv) shakllarida bo'lganli-gidan, punktuatsiyaga extiyoj sezilmagan. Punktuatsiya yozuvning keyingi taraqqiyotida shakllana boshlagan.

Yozuvning sintetik usulidan analitik yozuv usuliga o'tilishi, endi yozuvda grafemalarni – belgilarni ajratish, bir harfli so'zni ko'p harfli so'zdan, so'zni so'zdan ajratish ehtiyojining tug'ilishi, fikrni mantiqli bayon qilish, maqsadni to'g'ri ifodalash zaruriyati kabilar bora-bora yozuvga ayrim ishoralarning kiritilishiga olib keldi. Qadimgi yozma matnlarda so'zlar: a) bo'sh joy, interval (oraliq masofa), b) nuqtalar, v) ayrim belgilar (masalan, qizil rang) vositasida ajratilgan.

O'rta Osiyoning qadimgi yozuvlarida ham (oromiy, turkiy runik kabi) ajratuvchi belgilari saqlangan, ancha faol qo'llanilgan, bularni shartli ravishda qadimgi yozuvlarga xos «punktuatsion» belgilar deyish mumkin. O'rta Osiyoda arab yozuvi maydonga kelgandan keyin, oromiy, turkiy runik kabi yozuvlardagi mavjud an'anaviy yozuv tizimi buziladi. Arab grafikasida yozuvning yordamchi elementi sifatida:

- a) ta'kid belgi-lari" – tik to'g'ri chiziq, qizil va oq-qora ranglar;
- b) "ma'no belgilari" – "Qur'on"dagi turish va determinativlar;
- v)"bezak belgilari" qo'llangan.

Demak, XIX asrning II yarmigacha arab grafikasidagi o'zbek yozu-vida tinish belgilari bo'lмаган.

O'zbek punktuatsiya tarixi, asosan, XIX asrning II yarmidan keyin boshlanganki, buning ob'yektiv va sub'yektiy tarixiy sabablari bor:

1. XIX asrning II yarmida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi O'rta Osijo xalqlari madaniyatining, jumladan, o'zbek xalqi madaniyatining rivojlanishida omil bo'ldi. Rossiya va u orqali boshqa Yevropa xalqlari bilan bo'lgan turli xil madaniy aloqalar yozuvda ham o'z ifodasini topadi.

2. XIX asrning II yarmida O'rta Osiyoda poligrafiyaning vujudga kelishi: bosmaxonalar, nashriyotlarning paydo bo'lishi, kitob, gazeta, jurnallarning nashr etilishi, o'zbek adabiy tilining matbuot tili darajasiga ko'tarilishi yozuv madaniyatini, savodxonlikni – tinish belgilari qo'llash ilmini shakllantirdi. Bunda 1917 yildan

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

muntazam ravishda ikki tilda (ruscha va uzbekcha) nashr etilgan "Turkiston viloyatining gazeti" ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

3. Bu davrda tarjimachilik ishlari juda ravojlandi. Rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjima matnlarda, tabiiyki, tinish belgilari o'zbekcha nushaga ham o'tdi.

4. Turkiy tillar, turkiy yozuvlar tadqiq qilina boshlandi: ilmiy asar-lar, grammatic qo'llanmalar paydo bo'ldi. Turkologlar tomonidan tahlil qilingan o'zbekcha matnlarda ham tinish belgilari qo'llanila boshlandi.

Bu holat keyinchalik o'zbek yozuvida an'anaga aylandi. Shunday qilib, XX asr boshlarida o'zbek punktuatsiyasi shakllanib yetdi. Xususan, 1920 yillardan keyin barcha turkiy tillar bilan birga, o'zbek grafikasining rivojida, xususan, orfografik va punktuatsion qoida-larning ishlanishida o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek tiliga ko'pgina tinish belgilari (so'roq, undov, qo'shtirnoq, ko'p nuqta kabi) kiritirildi.

Punktuatsiya tilshunoslikning grafika sohasi bilan zikh bog'langan. Ma'lumki, grafika muayyan tilning yozuv tizimini bir butun holda, barcha belgilarni yig'indisini o'rganuvchi soha, Shulardan tinish belgilarni punktuatsiya tomonidan o'rganilishidan qat'i nazar, keng ma'noda punktogrammalar ham grafikaning tarkibiy qismidir. Grafika tinish belgilaridan tashqari, raqamlari, diakritik va tarnskripsion belgili kabi yozuvlarni ham o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa ham, punktuatsiya o'z o'rganish ob'yekti va vazifasi jihatidan grafikadan, yozuvning boshqa - belgili shakllaridan ajralib turadi.

Demak, grammalar (tinish belgilari) muayyan yozuv tizimining yordamchi, ayni paytda, zarur qimsi bo'lgan shartli belgilarni yig'indisidir. Punktuatsiya orfografiya bilan aloqador. Orfofafiya so'zlarning to'g'ri yozilishini o'rganib, morfologiya bilan zikh bog'lansa, punktuatsi-ya gaplarning to'g'ri tuzilishi, undagi fikrning to'g'ri ifodalaniishi uchun xizmat qilib, sintaksis bilan zikh bog'lanadi. Masalan, so'roq, undov, nuqta kabi tinish belgilaridan so'ng gapning bosh harf bilan, ikki nuqta, nuqtali vergullardan keyin gapning ko'pincha kichik harf bilan yozilish holatlari punktuatsiya bilan orfografiyaning aloqadorligini ko'rsatuvchi omildir. Bundan tashqari, savodxonlikni oshirishda orfografiya qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, punktuatsiya ham shuncha ahamiyatga egadir. Orfografiya ham, punktuatsiya ham grafik vositalar bo'lib, to'g'ri yozish to'g'ri tuzish, to'g'ri ifodalash haqidagi ta'limotdir.

Punktuatsiya uslubiyat bilan aloqador. Tinish belgilaringin noto'g'ri qo'llanilishi gap mazmunida galizlik, mavhumlik va noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, Ey tabib, qo'y, boqma dardim bedavolardan biri (Muq.) gapida uch holat bor: a) qo'y so'zidan keyin vergul o'qilmasa, "tabib" "qo'yboqar"ga aylanadi; b) "dardim" dan keyin vergul qo'yilsa, "dardim" "boqma"ga bog'lanadi - kesim+to'ldiruvchi (boqma dardimni) munosabati tug'iladi; v) "boqma" dan keyin vergul qo'yilsa, "ega+kesim" (dardim bedavolardan biri) tug'iladi.

Punktuatsiya sintaksis bilan uzviy aloqador. Punktuatsion qoidalar sintaktik qonuniyatlar, me'yorlar asosida talqin qilinadi. Punktuatsiya qoidalarini sintaktik qonuniyatlariga bog'lab bayon qilishning o'z ilmiy metodik asoslari va usullari bor. Punktuatsiya qoidalarini aniqlashda mazkur tilning barcha sintaktik, uslubiy

xususiyatlari hisobga olinadi. Tinish belgilari qo'llashni gap qurilishi, uning grammatik-semantik shakllanishi boshqaradi. Masalan, Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, Ko'zimni yashnatib, kiyibsiz atlas (X.Saloh) gapida vergul uch xil vazifada: 1) uyushgan undalmalarni biriktirish; 2) ularni gap bilan grammatik bog'lanmaganligi uchun gapdan ajratish; 3) oborotdagi qisqa pauzani qoplash uchun qo'llanilganki, buni shu gapning konkret sintaktik qurilishi taqozo qilgan. Punktuatsiya asoslaridan kelib chiqib, tinish belgilari qo'llashning quyidagi asoslarini ko'rsatamiz:

1. Logik-grammatik asos. Bunga ko'ra, tinish belgilari gap mazmuni, tuzilishi va ohangi nazarda tutilgan holda, shulardan kelib chiqib qo'llaniladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gaplarning oxirida so'roq, emotsiya (hayajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yilgan bo'ladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zinch bog'langanlari qavs, sayoz, bo'sh bog'langanlari tire bilan ajratilish holatlari ko'proq nutq tuzilishga asoslanadi: "Dod!" degan ovoz eshitildi. (O.) Qalandarov jonjahdi bilan baqirdi: Yo'qol!!! gaplarining birinchisidagi qo'shtirnoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

2. Uslubiy asos. Bu prinsipga ko'ra, tinish belgilari nutq uslubining talabidan kelib chiqib qo'yiladi. Til taraqqiyoti, til uslublarining rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasining kengayishi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlik uchun personajlarning nutqlari tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalarining nomi keltirilgan-ligidan, borligidan ularni tire bilan ajratishga extiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtirnoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanilmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining sub'yektiv maqsadi, emotsiyal fikr ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, Yoz. Quyosh hamma yoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik, to'kinchilik fasli! (U.) gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalash uchun foydalangan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali ifodalangan. G'ovur bo'lib ketdi: Xotin-qizlar zveno, brigadani udda qilolmaydim! (A.Q.) gapida ritorik so'roq bilan fikrning kuchli (emotsional) va davomli ekanligi ifodalangan. Bu maqsadlar undov belgisi va ko'p nuqta orqali ifodalangan. Lekin bundan har bir yozuvchi tinish belgilaridan o'z bilganicha, o'z istagicha foydalana beradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual uslub talabiga ko'ra qo'llanilishi ham uslubiy tamoyilning umumiy me'yoriga bo'ysinadi.

3. Farqlovchi (differensial) asos. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgi-lari yozuv texnikasi (shakli)ni farqlash uchun qo'llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog'liq holda odatda-gidan farqli ishlatilishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qissqartirishda iqtibos - sitatalarning manbaini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlatiladi. Masalan, kitob muqovasida tire (Toshkent - 2011 kabi), havolalarda vergul (G'afur

G'ulom, Tanlangan asarlar, Toshkent, 1985 kabi) qo'yiladi.Ba'zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalaniladi: Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla Qahhor – A.Q. Ko'p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo'yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi.Umuman, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoillar asosida qo'llaniladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil yetakchi bo'lib, keyingi ikki tamoyil shunga asoslanadi – yordamchi tamoyil.

Punktuatsiya printsipi tinish belgilarining qanday usul va tartibda qo'llanilishini ko'rsatadi. Shuning uchun tinish belgilarining qo'llanishidagi barcha qonun-qoida va tartiblar punktuatsiya printsiplari asosida belgilanadi; punktuatsiya printsiplari tinish belgilarining ma'lum asosiy usullar zaminida sistemalashuvini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda gapda tinish belgilari yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari hamda til birliklaribidan ko'rsatish mumkin bo'lмаган turlicha fikriy munosabatlarni psihologik va innavatsyon holatlarni ifodalashda ham katta ahamiyatga ega.Bundan tashqari tinish belgilari matndagi fiklarni yozma ravishda ifoda etish uchun muhim bo'lgan qismlarga ajratishga yordam beradi. Nutqning semantik tuzilishini ko'rindigan qiladi ,alohida gaplarni va ularning qismlarini ta'kidlab intonatsiyani ko'rsatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A.Fitrat "Tanlangan asarlar" T-“Ma'naviyat”,2009
- 2.Nurmonov A va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: “ILM ZIYO”, 2013.
- 3.Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: “Talqin”, 2005.
- 4.Hamroyev M.A. Ona tili. Toshkent, 2007.